

Imam an-Nawawi's "Al-Arba'in" and Its Islamic-Moral Significance

Abdulvahobov Orifjon Abdullo o'g'li

Annotation

This article is dedicated to the famous work "Al-Arba'in" (Forty Hadiths) by the great Muhaddith Imam an-Nawawi. It briefly covers Imam an-Nawawi's life and scholarly legacy, and analyzes the purpose, content, structure, and educational significance of the book. Through key hadiths included in the collection — such as those on intention (niyyah), faith (iman), excellence (ihsan), halal and haram, brotherhood, sincere advice, and controlling anger — the author highlights the role of "Arba'in" not only as a religious text but also as an important source of moral and social education. The article emphasizes that the work remains highly relevant today for the moral upbringing of youth and spiritual development.

Keywords: Imam an-Nawawi, Al-Arba'in, Forty Hadiths, Islamic Ethics, Moral Education, Hadith Collection, Faith and Ihsan, Halal and Haram, Intention (Niyyah)

Imom Navaviyning "Arbain" asari

Abdulvahobov Orifjon Abdullo o'g'li

Anotatsiya: Ushbu maqola buyuk muhaddis Imom Navaviyning "Arbain" (Qirq hadis) asariga bag'ishlangan. Unda Imom Navaviyning hayoti va ilmiy merosi qisqacha yoritilib, asarning yaratilish maqsadi, mazmuni, tuzilishi va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif asarda keltirilgan muhim hadislar (niyat, iymon, ihson, halol-harom, birodarlik, nasihat, g'azabni tiyish va boshqalar) misolida "Arbain"ning nafaqat diniy, balki axloqiy va ijtimoiy tarbiya manbai sifatidagi o'rnini ochib beradi. Asar bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi va ma'naviy kamolotda dolzarbligini saqlab qolayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar :Imom Navaviy, Arbain, Qirq hadis, Islom axloqi, Ma'naviy tarbiya, Hadislar to'plami, Iymon va ihson, Halol-harom, Niyat hadisi

Islom tamadduni tarixida insonning e'tiqodi, axloqi va ma'naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qilgan ko'plab nodir asarlar yaratilgan. Ana shunday bebaho manbalardan biri buyuk muhaddis, faqih va mutafakkir Imom Navaviyning "Arbain" asaridir. Mazkur asar musulmon olamida asrlar davomida katta ehtirom bilan o'qib kelinayotgan, diniy ta'lim va axloqiy tarbiyada muhim o'rin tutgan hadislar to'plami hisoblanadi. Uning hajmi katta bo'lmasa-da, mazmuni nihoyatda chuqur, tarbiyaviy ta'siri esa g'oyat kengdir. Shu sababli "Arbain" nafaqat madrasa va ilm dargohlarida, balki oddiy kitobxonlar, yoshlar va din asoslarini o'rganmoqchi bo'lgan insonlar orasida ham keng tarqalgan ¹.

Imom Navaviy o'z ilmiy merosi orqali islom dinining mohiyatini sodda, tushunarli va ta'sirchan shaklda bayon qilib bergan allomalardan biridir. U zotning "Riyozus-solihin", "Al-Azkor", "Sharh Sahih Muslim" kabi asarlari qatorida "Arbain" ham alohida mavqega ega. Chunki bu kitobda dinning eng muhim masalalarini o'zida mujassam etgan hadislar saralab jamlangan. Asardagi rivoyatlar insonning niyati, iymoni, ibodati, halol-haromga munosabati, odobi, birodarlik tuyg'usi, nasihat, sabr, tavoze' va qalb pokligi kabi masalalarni qamrab oladi. Demak, "Arbain" faqat bir hadis to'plami emas, balki musulmon kishining ma'naviy hayotini tartibga soluvchi muhim qo'llanmadir ². Bu asarning qadri, avvalo, unda tanlangan hadislarning mazmuniy salmog'ida namoyon bo'ladi.

Imom Navaviy ko'p rivoyatlar ichidan aynan ummat uchun eng zarur, eng umumiy va eng ta'sirchan hadislarni tanlagan. Natijada asar islomning asosiy qoidalarini qisqa, lekin sermazmun tarzda ifodalovchi manbaga aylangan. Shu bois uni o'qigan inson din haqida umumiy va mustahkam tasavvurga ega bo'ladi, o'zining kundalik hayotida amal qilishi zarur bo'lgan ma'naviy mezonlarni anglaydi. Bugungi kunda ham

¹ Imom an-Navaviy. Al-Arba'in an-Navaviyya. - Bayrut: Dor al-Minhaj, 2009. - B. 5.

² Abdulg'aniy ad-Daqqor. Al-Imom an-Navaviy. - Damashq: Dor al-Qalam, 1994. - B. 17.

“Arbain” asari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, zamonaviy hayotning murakkabligi, ma'naviy bo'shliq, axloqiy muammolar va turli g'oyaviy ta'sirlar kuchaygan bir paytda bunday ixcham va ishonchli manbalarga ehtiyoj yanada ortmoqda. Inson ko'pincha murakkab savollarga oddiy, ravshan va chuqur javob izlaydi. “Arbain” esa aynan shunday ehtiyojni qondira oladigan asarlardan biridir. Mazkur maqolada Imom Navaviyning hayoti va ilmiy merosi haqida qisqacha ma'lumot berilib, “Arbain” asarining yaratilish sabablari, mazmuni, uslubi va islomiy-ma'rifiy ahamiyati yoritiladi.

Imom Navaviyning to'liq ismi Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf an-Navaviydir. U hijriy 631 yilda, milodiy 1233 yilda Shom o'lkasidagi Navo qishlog'ida tavallud topgan. U yashagan davr ilmiy jihatdan sermahsul, ayni paytda siyosiy jihatdan murakkab bir davr edi. Shunga qaramay, Imom Navaviy juda yoshligidan ilmga chuqur berilib, qisqa vaqt ichida hadis, fiqh, tafsir, lug'at va usul ilmlarida katta shuhrat qozongan. Uning hayoti taqvo, zohidlik, kamtarlik va ilm yo'lidagi sidqidildan xizmat bilan o'tgan. U ilmni faqat o'rganmagan, balki tartibga solib, ummatga foydali shaklda taqdim eta olgan ulug' alloma ham bo'lgan³. Hadis ilmi tarixida “qirq hadis” to'plash an'anasi qadimdan mavjud bo'lgan. Ko'plab olimlar muayyan mavzularga oid yoki dinning asosiy masalalarini qamrab olgan qirqta hadisni jamlab, risolalar tuzganlar. Imom Navaviy ham shu an'anani davom ettirgan, lekin uning “Arbain”i mazmuniy teranligi va tanlovining puxtaligi bilan alohida ajralib turadi. Asar aslida qirqdan ortiq hadisni o'z ichiga oladi, biroq “qirq hadis” an'anasi doirasida mashhur bo'lib ketgan. U zotning maqsadi hadislarning sonini to'ldirish emas, balki dinning eng muhim ustunlarini ifodalovchi rivoyatlarni bir joyga jamlash edi⁴. “Arbain” asari o'zining tuzilishi jihatidan sodda, lekin ichki mazmuni jihatidan nihoyatda puxta. Undagi har bir hadis musulmon hayotining muhim bir tomonini yoritadi. Asarni mutolaa qilgan odam islom faqat

³ Abdulg'aniy ad-Daqqor. Al-Imom an-Navaviy. - Damashq: Dor al-Qalam, 1994. - B. 42.

⁴ Jaloliddin as-Suyuti. Sharh al-Arba'in an-Navaviyya. - Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2004. - B. 8.

marosimlar yig'indisi emas, balki niyat, qalb, amal, axloq va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligidan iborat mukammal hayot nizomi ekanini anglaydi. Shu bois “Arbain” asari asrlar davomida sevib o'qilgan, sharhlangan, yod olingan va amalda qo'llanilgan. Hozirgi kunda ham uning ahamiyati pasaymagan, aksincha, ma'naviy tarbiya manbai sifatida yanada qadrlanmoqda.

Asosiy qism

Imom Navaviyning ilmiy merosi juda boy va serqirradir. U faqat hadis olimi emas, balki fiqh, usul, axloq va ibodat masalalarida ham yuksak salohiyat egasi bo'lgan. Uning asarlarida chuqur ilm bilan amaliy hayotga yaqinlik uyg'unlashib ketadi. “Arbain” ham aynan shu xususiyatni yaqqol ko'rsatadi. Bu asarda Imom Navaviy diniy ilmlarni murakkab uslubda emas, balki qalbgaga tez yetib boradigan, yodda saqlash oson bo'lgan va amalda qo'llash mumkin bo'lgan shaklda taqdim etgan. Natijada asar keng kitobxonlar ommasi uchun ham tushunarli bo'lib qolgan.

Asarning eng mashhur hadislaridan biri “Amallar niyatlarga bog'liqdir” mazmunidagi rivoyatdir⁵. Ushbu hadis islom axloqi va ibodatining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Chunki insonning qilayotgan har bir ishi tashqi shakliga qarab emas, balki ichki maqsadiga qarab baholanadi. Bir amal tashqi tomondan juda go'zal ko'rinishi mumkin, lekin agar uning ortida riya, manfaatchilik yoki noto'g'ri maqsad yotsa, u amalning qadri kamayadi. Aksincha, oddiy bir ish samimiy niyat bilan bajarilsa, ibodat darajasiga ko'tarilishi mumkin. Masalan, ilm olish, halol mehnat qilish, oilani boqish, birovga yordam berish yoki yaxshi so'z aytish kabi ishlar to'g'ri niyat bilan savobli amalga aylanadi. Shu jihatdan bu hadis butun musulmon hayotining ichki mezoni vazifasini bajaradi. “Arbain”da keltirilgan Jibril hadisi esa islom dinining juda muhim tushunchalarini bir joyda jamlagani bilan alohida qimmatga ega⁶. Ushbu hadisda iymon,

⁵ Imom al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. - Bayrut: Dor Ibn Kasir, 2002. - B. 3.

⁶ Imom Muslim. Sahih Muslim. - Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2003. - B. 24.

islom va ihson masalalari tushuntiriladi. Iymon qalb bilan tasdiqlanadigan e'tiqod asoslarini bildirsa, islom insonning tashqi amallarida namoyon bo'ladigan ibodat tizimini anglatadi. Ihson esa dindorlikning eng yuqori darajasi bo'lib, insonning Allohni ko'rib turgandek ibodat qilishi, agar o'zi Uni ko'rmasa ham, Alloh uni ko'rib turganini his etishidir. Mazkur hadis "Arbain"ning markaziy rivoyatlaridan biri bo'lib, u orqali dinning ichki va tashqi tomonlari uyg'un holda tushuntiriladi. Demak, musulmon shaxsining kamoloti faqat e'tiqod yoki faqat amal bilan emas, balki ikkalasining ihlos va hushyorlik bilan birlashuvi orqali yuzaga keladi. Asardagi yana bir muhim hadis halol va harom masalasiga bag'ishlangan. Unda halol narsalar aniq, harom narsalar ham aniq, ikkisining orasida esa shubhali narsalar borligi bayon qilinadi⁷. Kim ana shu shubhali narsalardan saqlansa, o'z dinini va obro'sini saqlagan bo'ladi. Bu hadismusulmon kishining ehtiyotkor yashashi, o'zining topayotgan rizqi, qilayotgan savdosi, kundalik odatlari va muomalalariga mas'uliyat bilan qarashi kerakligini o'rgatadi. Bugungi hayotda ayniqsa moliyaviy munosabatlar, reklama, ijtimoiy tarmoq faoliyati, turli xizmatlar va kasblar ko'paygan sari halol-harom masalasi yanada murakkablashmoqda. Shunday vaziyatda ushbu hadis insonni nafaqat hukmiy, balki ma'naviy hushyorlikka ham chaqiradi. Inson ba'zan bir ishning rasman joiz yoki nojoiz ekanidan ham oldin, uning qalbini qanday holatga olib borishini o'ylashi kerak bo'ladi.

Imom Navaviy "Arbain" orqali dinning faqat shaxsiy ibodatlardan iborat emasligini ham ko'rsatadi. Asardagi ko'plab hadislar odamlar bilan munosabat, jamiyatdagi o'rin, birodarlik, samimiyat va mehr-oqibatni tarbiyalaydi. Masalan, "O'zing uchun yaxshi ko'rgan narsani birodaring uchun ham yaxshi ko'rmaguningcha komil mo'min bo'la olmaysan" mazmunidagi hadis musulmon jamiyatining axloqiy asoslaridan biridir⁸. Bu hadis insonni faqat o'z foydasini o'ylab yashashdan qaytaradi.

⁷ Imom al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. - Bayrut: Dor Ibn Kasir, 2002. - B. 12.

⁸ Imom Muslim. Sahih Muslim. - Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2003. - B. 27.

Unda qalb kengligi, boshqalarga nisbatan ezgu niyat va hasaddan pok bo'lish talabi mujassam. Agar inson o'zi uchun orzu qilgan yaxshilikni boshqalar uchun ham istasa, jamiyatda ishonch, hurmat va hamjihatlik kuchayadi. Aks holda esa adovat, rashk va nizo ko'payadi. Demak, “Arbain”dagi hadislar jamiyat axloqini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Asarda “Din nasihatdir” mazmunidagi mashhur hadis ham keltiriladi⁹. Bu hadis tashqi ko'rinishidan juda qisqa bo'lsa-da, ma'nosi nihoyatda keng. Bu yerda nasihat so'zi faqat og'zaki pand emas, balki xolislik, samimiylik, sadoqat va yaxshilikni istash ma'nolarini ham anglatadi. Allohga, Uning Kitobiga, Rasuliga, musulmon rahbarlariga va barcha musulmonlarga nisbatan xolis bo'lish komil dindorlik belgisi sifatida ko'rsatiladi. Bu hadis kishiga dinni faqat marosim yoki ibodatlar orqali emas, balki qalbdagi sadoqat va niyat pokligi orqali ham yashash lozimligini eslatadi. Dinning tashqi tomoni ko'zga ko'rinadi, lekin uning ichki ruhi aynan samimiyatda namoyon bo'ladi.

“Arbain” asarining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, undagi hadislar insonni tashqi xulq-atvorini emas, avvalo ichki dunyosini isloh qilishga undaydi. Masalan, tilni tiyish haqidagi hadisda “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, yaxshi gapirsin yoki jim tursin” degan mazmun beriladi. Bu hadis nutq madaniyatining qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Ko'pchilik gunohlar til bilan sodir bo'ladi: g'iybat, tuhmat, yolg'on, masxara, qo'pol muomala, behuda gaplar shular jumlasidandir. Insonning qalbi pok bo'lsa ham, tilini ehtiyot qilmasa, jamiyatdagi munosabatlar buzilishi mumkin. Shuning uchun “Arbain” nafaqat qalb, balki so'z odobi haqida ham muhim ko'rsatmalar beradi. G'azabni tiyish haqidagi hadis ham asarda alohida o'ringa ega. Bir sahoba Rasulullohdan nasihat so'rganida, u zot unga “G'azablanma” deb javob berganlari mashhur. Bu qisqa nasihat ortida insonning butun ichki tarbiyasiga doir katta ma'no mujassam. Chunki boshqarilmagan g'azab ko'plab muammolarga sabab bo'ladi. Oiladagi

⁹ Imom Muslim. Sahih Muslim. - Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2003. - B. 29.

nizolar, do'stlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, ishdagi tortishuvlar va hatto jinoyatlarning bir qismi ham bir zumlik g'azab oqibatida sodir bo'ladi.

“Arbain” bu orqali insonning o'z hissiyotlarini boshqara bilishi ham taqvo va komillik mezonlaridan biri ekanini o'rgatadi. Asarda qo'shniçilik, mehmondo'stlik va ijtimoiy odobga oid hadislar ham mavjud. Bu rivoyatlar musulmon kishining dindorligi faqat ibodat bilan cheklanmasligini, balki uning atrofdagilarga qilayotgan muomalasida ham aks etishini ko'rsatadi. Qo'shniga ozor bermaslik, mehmonni hurmat qilish, zaif va muhtojlarga yengillik yaratish, insonlarga rahm-shafqat bilan qarash kabi tamoyillar jamiyatdagi sog'lom muhitni shakllantiradi. Shu sababli “Arbain”ni faqat diniy matn emas, balki ijtimoiy odob va insoniylik maktabi deb ham baholash mumkin. Imom Navaviyning hadis tanlashdagi uslubi ham diqqatga sazovor. U mayda va ikkinchi darajali rivoyatlarni emas, balki “javomi'ul-kalim” xususiyatiga ega hadislarini tanlagan. Ya'ni qisqa lafz bilan juda katta ma'noni ifodalovchi rivoyatlar asarning asosini tashkil etadi. Bu jihat “Arbain”ning o'qishga qulay, yod olishga oson va sharhlashga boy bo'lishini ta'minlagan. Har bir hadis ustida uzoq tafakkur yuritish, undan fiqhiy, axloqiy va tarbiyaviy xulosalar chiqarish mumkin. Aynan mana shu xususiyat tufayli asar asrlar davomida ulamolar tomonidan sharhlangan va talabalarga dars sifatida o'qitilgan.

“Arbain”ning ilmiy qimmatini shundaki, u islom ilmlarining turli yo'nalishlarini o'zida birlashtiradi. Unda aqida masalalari ham, fiqhiy qoidalar ham, axloqiy fazilatlar ham, qalb tarbiyasiga oid nozik ishoralar ham mavjud. Masalan, niyat hadisi usul va axloqqa bog'liq bo'lsa, Jibril hadisi aqida va ibodat masalalarini o'zida jamlaydi. Halol-harom haqidagi hadis fiqhiy ehtiyotkorlikni o'rgatadi, birodarlik haqidagi hadis esa ijtimoiy axloqni mustahkamlaydi. Shu bois “Arbain”ni o'qigan inson diniy ilmlar orasidagi ichki bog'liqlikni ham his qila boshlaydi. Bu asarning yana bir ustun jihati uning pedagogik qulayligidir. Hadislar qisqa bo'lgani sababli yoshlar va boshlang'ich bosqichdagi talabalar uchun juda mos keladi. Ko'plab madrasalarda hadis ilmi aynan

“Arbain” orqali boshlangan. Talaba avval hadislarni yod oladi, keyin ustoz sharhi orqali ulardagi ma'no qatlamlarini o'zlashtiradi. Bu usul o'quvchining xotirasini ham mustahkamlaydi, tafakkurini ham kengaytiradi. Shu sababli “Arbain” asari ta'limda ham, tarbiyada ham o'zining samaradorligini isbotlagan. Imom Navaviyning “Arbain”i nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham katta shuhrat qozongan. Unga ko'plab sharhlar yozilgan, turli tillarga tarjima qilingan, ommabop va ilmiy nashrlarda qayta-qayta chop etilgan. Bu holat asarning vaqt va makon bilan cheklanib qolmaganini ko'rsatadi. Chunki unda ko'tarilgan mavzular umuminsoniy va doimiydir. Rostgo'ylik, halollik, samimiyat, taqvo, sabr, yaxshi muomala, niyat pokligi va birodarlik kabi fazilatlar har qanday jamiyatda qadrlanadi. Shuning uchun “Arbain” musulmonlar uchungina emas, ma'naviyat va axloq masalalariga qiziqqan har qanday o'quvchi uchun ham qimmatli manba bo'la oladi. Asarning zamonaviy ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi tezkor va murakkab hayot sharoitida “Arbain”dagi hadislar yanada dolzarb tuyuladi. Hozir inson ko'p ma'lumot oladi, lekin har doim ham to'g'ri yo'l topa olmaydi. Texnika rivojlangan, aloqa vositalari ko'paygan, lekin ruhiy xotirjamlik va ma'naviy barqarorlik masalasi oson hal bo'layotgani yo'q. Aynan shunday paytda qisqa, ravshan va hikmatli hadislar insonni ichki tartibga chaqiradi. Niyatni to'g'rilash, tilni ehtiyot qilish, g'azabni tiyish, halol yashash, boshqalarga yaxshilik tilash kabi qadriyatlar bugun ham dolzarb, ertaga ham dolzarb bo'lib qoladi. Yoshlar tarbiyasida “Arbain”ning o'rni ayniqsa katta. Chunki yoshlar davri qarashlar shakllanadigan, xarakter mustahkamlanadigan va hayotiy mezonlar tanlanadigan davrdir. Agar shu paytda ularga to'g'ri ma'naviy yo'nalish berilsa, ular kelajakda jamiyatning foydali, halol va mas'uliyatli a'zolariga aylanadi.

“Arbain”dagi hadislar yoshlarni niyatning pok bo'lishiga, mehnatda sidqidillikka, ilmdagi jiddiyatga, odo va sabrga, ota-ona hamda ustozlarga hurmatga, do'stlarga sadoqatga undaydi. Ularning tilini, qalbini va amallarini tartibga solishga yordam

beradi. Shu ma'noda bu asar faqat diniy risola emas, balki komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ma'naviy dastur hamdir. "Arbain"dagi hadislar insonni o'z-o'zini nazorat qilishga ham chorlaydi. Inson ba'zan boshqalarning xatolarini tez ko'radi, lekin o'zini tahlil qilishda sustkashlik qiladi. Bu asar esa kishini o'z niyatiga, o'z amallariga, o'z so'zlariga va o'z qalbiga nazar tashlashga undaydi. Bu esa ma'naviy kamolotning eng muhim bosqichlaridan biridir. Inson o'zini isloh qilmasdan turib, boshqalarni isloh qila olmaydi. Imom Navaviy tanlagan hadislar ana shu haqiqatni nozik, lekin kuchli usulda anglatadi. Asarda umid va qo'rquv o'rtasidagi muvozanat ham seziladi. Bir tomondan, inson gunohdan, zulmdan, shubhali narsalardan, yomon xulqdan saqlanishga chaqiriladi. Ikkinchi tomondan esa u tavba, rahmat, mag'firat va ezgulik eshiklari doimo ochiq ekanini anglaydi. Bu muvozanat islom tarbiyasining eng go'zal xususiyatlaridan biridir. Inson na haddan tashqari qo'rquvga tushib umidsiz bo'ladi, na haddan tashqari xotirjamlik bilan gunohga beparvo qaraydi.

"Arbain"dagi ko'plab hadislar aynan shu me'yorni saqlashga yordam beradi. Imom Navaviyning ushbu asari o'zbek musulmonlari ma'naviy hayotida ham muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo azaldan hadis ilmi rivoj topgan hududlardan biri bo'lgan. Shu sababli Imom Navaviyning asarlari, jumladan "Arbain" ham bu yurtlarda katta ehtirom bilan o'qilgan. Hozir ham ko'plab diniy suhbatlar, darslar va ma'rifiy yig'inlarda aynan shu asardan foydalaniladi.

Uning o'zbek tilidagi tarjimalari va sharhlari kitobxonlar orasida mashhur bo'lib, xalqning diniy-ma'naviy savodini oshirishda xizmat qilmoqda.

"Arbain"ni mutolaa qilish insonga katta hajmdagi murakkab kitoblarni o'qimasdan turib ham dinning asosiy ruhini his qilish imkonini beradi. Albatta, dinning barcha tafsilotlarini o'rganish uchun kengroq manbalar ham zarur. Biroq "Arbain" boshlang'ich va o'rta bosqichdagi o'quvchi uchun mustahkam poydevor bo'la oladi. U kishi qalbiga asosiy tamoyillarni joylaydi, keyin esa shu asoslar ustiga chuqurroq ilm

qurish osonlashadi. Shu sababli u nafaqat mustaqil asar, balki katta ilmga kirish eshigi sifatida ham katta qimmatga ega. Asarning yana bir afzalligi shundaki, u insonni dinni bir yoqlama tushunishdan saqlaydi. Ba'zan ayrim kishilar dinni faqat hukmlar yig'indisi deb o'ylaydi, ba'zilar esa faqat qalb masalasi deb hisoblaydi. “Arbain” esa dinda ikkalasi ham zarurligini ko'rsatadi: qalb ham, amal ham; niyat ham, hukm ham; ibodat ham, axloq ham; shaxsiy taqvo ham, ijtimoiy mas'uliyat ham. Mana shu uyg'unlik asarning eng katta fazilatlaridan biridir.

Xulosa

Imom Navaviyning “Arbain” asari islom ilmiy merosining eng sara namunalaridan biri sifatida alohida qadrlanadi. U hajman ixcham bo'lsa-da, mazmunan nihoyatda boy, tarbiyaviy jihatdanchuqur va amaliy hayot uchun juda foydali manbadir. Asarda jamlangan hadislar musulmon kishining e'tiqodi, ibodati, axloqi, qalb pokligi va ijtimoiy muomalasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan “Arbain” nafaqat hadislar to'plami, balki bir umr amal qilinadigan ma'naviy dastur sifatida ham baholanishi mumkin¹⁰. Maqola davomida ko'rib chiqilganidek, Imom Navaviy hadislarini tanlashda nihoyatda chuqur ilmiy va tarbiyaviy yondashuvni qo'llagan. U zotinning eng asosiy ustunlarini ifodalovchi, inson hayotida har doim zarur bo'ladigan rivoyatlarni saralagan. Niyat, iymon, ihson, halol-harom, birodarlik, nasihat, sabr, g'azabni tiyish, til odobi va ijtimoiy mas'uliyat kabi mavzularning barchasi asarda o'z o'rnini topgan. Bu esa “Arbain”ni kichik hajmda katta ma'nolarni jamlagan nodir asarga aylantiradi. Asarning eng katta fazilatlaridan biri shundaki, u insonni faqat bilim olishga emas, balki o'zini tarbiyalashga undaydi. Uni o'qigan kishi nafaqat hadis matnlarini bilib oladi, balki o'z qalbiga nazar tashlaydi, niyatini tekshiradi, so'zi va amallarini tartibga solishga intiladi. Shu ma'noda

¹⁰ Ibn Rajab al-Hanbaliy. Jomi' al-ulum va-I-hikam. - Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2001. - B. 57.

“Arbain”ning ta'siri faqat aqlga emas, qalbgga ham qaratilgan. Ilmning eng foydali turi ham aslida insonni o'zgartiradigan, uni yaxshilik sari yetaklaydigan ilmdir. Bugungi kunda ham “Arbain” asari o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy hayotda axloqiy mezonlarga, ma'naviy tayanchga va ishonchli diniy manbaga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Imom Navaviy ushbu asari orqali aynan mana shunday ehtiyojga javob bera olgan. Shu bois “Arbain” asrlar davomida sevib o'qilgan bo'lsa, bundan keyin ham ma'naviy kamolot izlagan insonlar uchun muhim qo'llanma bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulg'aniy ad-Daqqor. Al-Imom an-Navaviy. – Damashq: Dor al-Qalam, 1994.– 320 b.
2. Jaloliddin as-Suyutiy. Sharh al-Arba'in an-Navaviyya. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2004. – 156 b.
3. Ibn Rajab al-Hanbaliy. Jomi' al-ulum va-l-hikam. – Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2001. – 544 b.
4. Imom al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dor Ibn Kasir, 2002. – 1344 b.
5. Imom an-Navaviy. Al-Arba'in an-Navaviyya. – Bayrut: Dor al-Minhaj, 2009.–88b.
6. Imom Muslim. Sahih Muslim. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 2003. – 1296b.